

## CHET TILI DARSLARIDA O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Madaminova Dilbar Umarbek qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tili darslarida o'yinlardan foydalanish, uning ahamiyati va afzalliklari, pedagogik o'yinlarning chet tilini o'rgatishdagi hamda o'rganishdagi foydali jihatlari haqida so'z yuritiladi. Darslarda qo'llaniladigan pedagogik o'yinlar o'qitishning faol samarali metodi hisoblanib, bunday mashg'ulotlar nafaqat insonning bilim va malakasini, balki kasbiy hamda axloqiy xususiyatlarini, ya'ni faollik, ijodiylik, ijodiylik, jamoatchilik kabi xislatlarini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlari:** o'yin, pedagogik o'yinlar, rolli o'yin darsi, teatrlashtirilgan o'yin darsi, o'yin darsi, "sud" darsi, konsert darsi, "tergovni bilimdonlar olib boradi" darsi.

**Аннотация:** В данной статье говорится об использовании игр на занятиях иностранным языком, ее значении и преимуществах, полезных аспектах педагогических игр при преподавании и изучении иностранного языка. Педагогические игры, используемые на занятиях, считаются активным и эффективным методом обучения, и такая деятельность служит формированию не только знаний и умений человека, но и профессионально-нравственных характеристик, т. е. таких качеств, как активность, творчество, креативность, коммуникабельность.

**Ключевые слова:** игра, педагогические игры, ролевой урок, театрально-игровой урок, игровой урок, «судебный» урок, концертный урок, урок «знатоки ведут следствие».

**Annotation:** This article talks about the use of games in foreign language classes, its importance and advantages, useful aspects of pedagogical games in teaching and learning a foreign language. Pedagogical games used in classes are considered an active and effective method of teaching, and such activities serve to form not only the knowledge and skills of a person, but also professional and moral characteristics, i.e., such qualities as activity, creativity, creativity, community.

**Keywords:** game, pedagogical games, role play lesson, theatrical game lesson, game lesson, "court" lesson, concert lesson, "experts lead the investigation" lesson.

**Kirish.** Bugungi tobora rivojlanib borayotgan mamlakatimizda chet tilini o'rganishga va chet tilini mukammal egallagan mutaxassislariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu sababdan chet tilini o'rgatish maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanmoqda. Hammamiz bilamizki, bu yoshdagi bolalar chet tilini, umuman har qanday bilimni siz-u biz kabi qabul qilib o'rgana olmaydi. Sababi esa bu yoshdagi kichkintoylarning asosiy faoliyat turi o'yin hisoblanadi. Tabiiyki biz bu holatda darslarni o'zlashtirishlari uchun o'yinlardan foydalanamiz. Chet tili darslari pedagogik o'yinlar orqali olib borish faqat bog'cha yoshidagilar uchun emas, balki katta yoshdagilar uchun ham juda samarali metod hisoblanadi. Chunki har qanday o'yin insonlardan faollikni, tezkorlikni, tavakkalchilikni hamda ijodkorlikni ham talab qiladi. Bunday muhitda o'rganish insonga zavq bag'ishlaydi va darsning ko'tarinki kayfiyatda o'tishini ham ta'minlaydi.

O'yin bu yangi tilni o'rganishda tasavvurni kengaytiradi, shu tilda o'ylash va gapirishga imkon yaratadi. O'yin yordamida xotirada unutilayotgan so'zlarni tiklash mumkin. Kichik-kichik guruhlarga bo'linib yoki umumjamo'a bo'lib o'ynaladigan o'yinlardan dars jarayonida yoki to'garak mashg'ulotlarida foydalanish mumkin. Bu esa o'z navbatida samarasini bermasdan qolmaydi albatta. Yolg'iz o'ynab biror muammoning yechimini topganda o'quvchi haqiqiy quvonch hissini tuyadi. Jamoa o'yinlari esa muvaffaqiyatga erishishga o'rgatadi va nutqni erkinlashtiradi.

Chet tilida olib boriladigan o'yinlar yoki o'yin uslubidagi mashqlarning barchasi so'zlarning sehrli olamiga yo'l ochib beradi. O'quvchilarga darsni grammatik tushunchalar bilan boshlash no'rindir, ayniqsa kichik sinf o'quvchilarini tezda zerikishiga sabab bo'ladi. Natijada darsga bo'lgan qiziqish so'nishi mumkin. Ular bilan hattoki salomlashish jarayonini ham no'anaviy tarzda boshlash kerak, masalan, o'qituvchi kirishi bilan darsni qandaydir salomlashishga oid fransuzcha qo'shiq bilan boshlash (asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mativatsion usuldir) usuli samarali usul desak adashmaymiz.

Olimlar tadqiqotlariga ko'ra, o'yin mehnat, ta'lim olish kabi faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yin nafaqat bolalar va kattalarning, balki insoniyat turmushida muayyan hodisa sifatida hamda psixologiya va pedagogikada esa maxsus o'rganilayotgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda turli pedagogik manbalarda ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan o'yinlarni "pedagogik o'yinlar", "o'yinli pedagogik texnologiyalar", "didaktik o'yinlar", "ta'limiy o'yinlar", "tarbiyaviy o'yinlar" kabi turlicha nomlar bilan atashmoqda.

"O'yin" so'zi tilga olinganda, odamlar xayoliga sport o'yinlari, rolli o'yinlar, teatrlashtirilgan o'yinlar, o'quv o'yinlari, video o'yinlar hamda bolalar o'yinlari kabilar keladi. Biz o'rganishimiz kerak bo'lgan o'yin turi esa o'quv o'yinlari, ya'ni pedagogik o'yinlardir. Nomidan ma'lumki biror bir fan bo'yicha darsni o'rgatishda qo'llaniladigan o'yinlar "pedagogik o'yinlar" deb ataladi.

Pedagogik o'yinlarning ta'lim jarayonida qo'llanilishining quyidagi afzalliklari mavjud:

- bo'lajak mutaxassisning kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan uzviylikni ta'minlashi;
- namunaviy pedagogik o'yindan bir necha marta samarali foydalanish mumkinligi;
- ta'lim oluvchining kasbiy faoliyat sirlarini egallashi va bilimlarni pedagog yordamisiz mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- ta'lim oluvchilarning mustaqil kasbiy faoliyatdagi yuzaga keladigan xatoliklarni oldindan bartaraf etish imkoniyatini yaratilishi;
- guruh a'zolarida birgalikda fikrlash qobiliyatining rivojlanishi;
- boshqaruvning yangi shakl va qoidalari, tuzilmasi, me'yori va metodikasining sinovdan o'tkazilishi va boshqalar.

Pedagogik o'yin davomida ta'lim oluvchilarda quyidagi ko'nikma va malakalar shakllanadi:

- ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish;
- ishonchli ma'lumotlar etarli bo'lmagan sharoitlarda echimlar qabul qilish va uning samarasini baholash;
- muayyan turdagi kasbiy amaliy masalalarni tahlil qilish;
- kasbiy faoliyat sohalari o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganish;
- jamoada ishlash, masalalar yechimlarini hamkorlikda ishlab chiqish;
- kasbiy faoliyatdagi jarayon va hodisalarni tadqiq etishda tizimli yondashuvdan foydalanish va boshqalar.

Pedagogik o'yinlar orqali olib boriladigan dars turlari bilan tanishib o'tsak:

Rolli o‘yin darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

O‘yin darsi - dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning ozlashtirishlari tashkil qilish darsi.

"Sud darsi" - o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos "sud" jarayonini tashkil etish orgali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Kontsert darsi - dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi kontsert shaklida ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimni mustahkamlash imkoniyatini beradi.

"Tergovni bilimdonlar olib boradi" darsi - dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o'quvchilar yordamida qiziqarli savol-javoblar, tahlillar asosida isbotlab tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o'quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib, eslab qolishlari uchun qulaylik yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik o‘yinlar o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, ahloq-odob o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish bilan birgalikda ularga dars davomida zavq va ko'tarinki ruhni bag'ishlovchi samarali vositadir bo'lib qolaveradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. -T.: O'qituvchi, 2012.
2. B. Sobirov. Interfaol metodlar. Farg'ona. 2020.
3. Rahimov I.A. Pedagogik o'yinlar va ularning dars jarayonidagi ahamiyati. Metodik tavsiyanoma. - Namangan. 2004.
4. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: 2001.
5. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
6. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 348-354.
7. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 348-354.
8. Ilxomovna, Djafarova Dildora. "The emergence of the concept of "historical memory" in linguistics and the history of its socio-cultural formation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.3 (2022): 169-173.
9. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.

10. Rahmonova, Gulnoza, and Dildora Djafarova. "Explanation of the term" neologism." in linguistics. In Конференции. 2021.
11. Ixomovna, Djafarova Dildora. "Fransuz va o 'zbek frazeologiyasida "tarixiy xotira" ni ifodalashda til o 'yinlarini o 'zaro ta'siri (ahamiyati)." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.1 (2021): 255-259.
12. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
13. Яхшибоева, Нодира. "ТУРИСТИЧЕСКИЙ ДИСКУРС КАК ОДИН ИЗ ОСОБЫХ ВИДОВ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО ДИСКУРСА." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.6 (2023): 879-884.